



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ЖИЗЗАХ
ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

ЧЕТ ТИЛЛАР ФАКУЛЬТЕТИ

**“ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН
УСУЛЛАРИ, ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ФИЛОЛОГИК
ТАДҚИҚОТЛАРДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ”**

**МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
(ЖИЗЗАХ ШАҲРИ, 2022 ЙИЛ 1-ИЮНЬ)**

ЖИЗЗАХ 2022

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
ИНСТИТУТИ**

ТАБИИЙ ВА АНИҚ ФАНЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ КАФЕДРАСИ

**“ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ,
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ФИЛОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА
ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ”**

**Республика миқёсидаги илмий-амалий
конференция материаллари**

Жиззах шаҳри, 2022 йил 1-июнь

ЖИЗЗАХ – 2022

Asking directions is also effective activity for modal verbs. In this technique teacher asks to say the way to students' house or another sightseeing place. Students should continue their speech with modal verbs. Especially, the modals should, could and must are mostly used in this activity.

7. Conclusions.

In this exercise teacher reads or tells a sentence without conclusion. Students give their own ideas and options. For example: teacher says "I have lost my keys". Students' answers are "You can't open your house", "You should be careful", "You have to find it immediately" and so on.

8. Songs

Nowadays songs are widely used in teaching procedure. Because, students have interest in them, adding to that the rhythm and music help to concentrate on their thoughts. Students can easily learn by heart the words of it. Of course, it is very helpful to learn the places of modals in sentences. For this activity teacher should search for songs which the modal verbs are used. To sum up, teachers have difficulty in teaching modal verbs to the students because of non existence in Uzbek language. Thus, this process demands using several techniques and activities. Above mentioned like encouragement, error correction, practising, conclusion songs are very helpful to the teachers. Teacher selects one of them and prepares activities with the several resources like grammar books, internet.

References:

1. 5 Must – use exercises for teaching ESL modal verbs.
2. <https://www.fluentu.com/blog/educator-english/teaching-es>
3. 10 Teacher Tested Tricks to Teach Modal verbs
4. <https://m.busyteacher.org/7763-10-teacher-tested-tricks-to-teach-modal-verbs.html>

NUTQIY AKTLARNING MULOQOTDAGI AHAMIYATI

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

**Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar
fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi**

Baxtiyorova Rayxona

**Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

Annotatsiya: tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilish jarayonida lisoniy birliklar asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish, savol berish, koyish kabilar mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon

qiladi. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir.

Kalit so'zlar: Nutqiy muloqot shakllari, nutqiy akt, lisoniy muloqot birligi, verbal va noverbal vositalar, ekstralingvistika, paralingvistika...

XX asrning ikkinchi yarmidan nutqiy akt nazariyasi shakllana boshladi. Bundan oldin ham nutqiy akt tushunchasi B.Humboldt, Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning ta'limotlarida mavjud bo'lgan. Nutqiy akt nazariyasi to'liq bir ta'limot sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin, amerikalik psixolog J.Syorl va boshqalarning ishlarida shakllangan.

Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilish jarayonida lisoniy birliklar asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir¹³⁸.

J.Ostin va uning hamkasblarining fikricha, har bir gap talaffuz qilinganda, o'z ma'nosi ifodasidan tashqari, ma'lum bir harakat bajariladi, ya'ni biror-bir voqea haqida darak-xabar beriladi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, ta'qiqlanadi va buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va'da yoki taklif qilinadi hamda takalluf, minnatdorchilik izhor qilinadi va hokazo. Demak, nutqiy akt ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir.

Buni quyidagicha izohlash mumkin:

So'zlovchi Gaplar lisoniy tizimi

Tinglovchi Doimiy lisoniy ma'no

Ma'noning kontekstdagi o'zgarishlari

Nutqiy akt mazmunining tarkib topishi va uning voqelanishi bevosita so'zlovchining muloqot maqsadi, istagi bilan bog'liqdir¹³⁹. Jon Syorl bu borada shunday deydi: "Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek, simvol (ramz), so'z yoki gap emas, hatto simvol so'z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol, so'z yoki gapning nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qo'llanilishidir. Bundan ko'rinib turibdiki, gap belgisining ma'lum sharoitda

¹³⁸ Сафаров III. Прагмалингвистика. Тошлент: ЎЗМЭ, 2008. 71-б.

¹³⁹ Сафаров III. Прагмалингвистика. Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. 73-б.

yaratilishi va qo'llanilishi nutqiy aktdir va nutqiy aktlar lisoniy muloqotning asosiy va eng kichik birligidir".

Demak, nutqiy akt nazariyasi uchun gap tayanch birlik emas, undan "tayyor material" sifatida foydalanilmaydi. Aksincha, gap aynan nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa. Shunday ekan, nutqiy akt mazmuni to'lig'icha so'zlovchining muloqot maqsadi bilan bog'liq bo'lib qoladi. Aytish mumkinki, nutqiy akti muloqot tizimining asosiy tayanch birligi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topadi. Quyida nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash nuqtai-nazardan yondashamiz. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular – lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlardir.

Biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir.

- *Oppoq qizim, Marjonoy, beri keling, sizga ikki og'iz gapim bor! (dedi u allaqanday muloyim, mehribon ovozda, so'ng, bo'yinsiz boshini arang burib, so'rida o'tirgan jo'ralariga yuzlandi). ("Adolat manzili", 37 bet).*

Bu gapdan ko'rinib turibdiki, so'zlovchi ma'lum lisoniy kalimani yaratib uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajarmoqda.

Agar biror-bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo'lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi. Masalan, *"Oppoq qizim, Marjonoy, beri keling, sizga ikki og'iz gapim bor!"* gapi faqatgina yozuvda qolsa lokutsiya yo'q.

Mazmundor gaplar bekordan bekorga tuzilavermaydi, ularni tuzishdan va talaffuz etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi. Ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv akt natijasidir. Illokutsiya shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Masalan, *E, bu qanaqasi bo'ldi, xo'jayin? Biz tomonlarga keladilar-u, kaminani yo'qlamaydilar ham? Jamoliddin aka?" ("Osiy banda", 26-bet)* gapini talaffuz etish vositasida shu voqeadan xabardor ekanligi, meni ko'rib keting deya suhbatdoshidan arazlaganday bo'ladi. Shu bilan birga muloqotga undash kabi kommunikativ istaklarni ifodalash imkoni bor. Demak, illokutiv akt muloqot ishtirokchilari, ya'ni shaxslararo munosabatlarning ifodalanishi bo'lib, bu munosabat ma'lum faoliyat natijasida yuzaga chiqadi.

Faoliyat nazariyasining asoschilaridan bo'lgan A.N.Leont'evning faollikning tarkibiy qismlari aniq ko'rsatilgan: ehtiyoj→motiv→maqsad→ maqsadga erishish

sharoiti. Shaxs maqsadga ma'lum sharoitda ma'lum harakat vositasida erishadi. Maqsadga erishish sharoitida faoliyat doimo o'zgarib, o'sib boradi¹⁴⁰.

Inson ko'plab turdagi faoliyatlarni bajaradi va bu faoliyat turlari o'zlarining zotiy mazmuni bilan farqlanadi. Muloqot faoliyatning ana shunday turlaridan biridir.

Perlokutiv akt nutqiy faoliyat ta'sirining natijasi sifatida tavsiflanadi. Bu yuqoridagi aktlardan farqli o'laroq lisoniy vositalarsiz ham amalga oshishi mumkin. Chunki nutqiy ta'sir natijasini oldindan aytish qiyin, so'zlovchi nutqini eshitgan tinglovchining bo'lg'usi xatti-harakati, javobi turlicha bo'lishi mumkin:

- *Qani, ketdik, jiyan!*

- *Tog'ajon! Bilasiz-ku, men ichmayman.*

- *Juda soz, menga ko'proq qoladogan bo'пти! – piching qildi Sarkor.*

- *Tog'ajon, bilasiz-ku, men ichmayman. ("Osiy banda", 90-bet).*

Yuqoridagi gapdan ko'rinib turibdiki, so'zlovchining nutqiy faoliyatiga natijasi bu tinglovchi tomonidan berilib uning qanday natija berganligi lisoniy vosita orqali bayon etilib, taklifni inkor etmoqda.

Yuqorida aytganimizdek, tinglovchining so'zlovchi nutqiy faoliyatiga javobi nolisoniy vositalar bilan ham bayon etilishi mumkin.

- *Uchir. Shunday uchirginki, yarim soatda yetib boraylik ovulimizga, - dedi Sarkor.*

- *Tinchlikmi o'zi, xo'jayin? Shashtingiz past?*

- *Men bilan ishing bo'lmasin? – dedi Sarkor.*

- *Yo'lga qara! Shafyor xo'p deganday bosh iring'adi. ("Osiy banda", 30-bet).*

Bu yerda tinglovchi nolisoniy vosita orqali muloqoti amalga oshgan, keyin so'zlovchi uchun ayni bu vaziyatda tinglovchining fikri qiziq emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilish jarayonida lisoniy birliklar asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish, savol berish, koyish kabilar mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir. Shuni aytishimiz mumkinki, barcha nutqiy aktlar adresantning adresatga murojaatida namoyon bo'ladi va ayni vaqtda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. -Samarqand, 2010. 94- b.

¹⁴⁰ Равшанова Д. Амалий фаолият ва шахслараро мулоқот жараёни. Самарқанд: СДЧИ, илмий тўплам. 2009. 19-21 б.

2. Begmatov E., Tursunpo'latov M. O'zbek nutqi asoslari. -Toshkent, 1992. 88- b.
3. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari.-Toshkent,2007. 90- b.
4. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -Toshkent, 2005. 40-b.
5. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari. -Toshkent: Ta'lim, 2009. -240 b.